

YOSHLAR OVOZI

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

#14 (16616)
2024–yil, 24–aprel
chorshanba



/yoshlarovozi

/yoshlarovozi

/yoshlarovozi.uz

Gazeta 1925–yildan chiqqa boshlagan

BESH TASHABBUS KASHFIYOTLARI



19–20–APREL KUN-
LARI NAMANGAN
SHAHRIDAGI VILOYAT
YOSHLAR MARKAZI-
DA “YOSHLAR OVOZI”
TANLOVINING VILOYAT
BOSQICHI BO'LIB O'TDI.

Tanlov haqida qisqacha:

Bu yil Namanganda tanlovning
baxshichilik yo'nalishida 100 dan ziyod
yosh ishtirok etdi. Bu vadiy viloyatlari
ichida eng yuqori ko'rsatkich.
• Tanlovning mahalla, sektor hamda
tuman bosqichlarida 21 mingdan
ziyod ishtirokchi qatnashgan, ular-
ning 103 nafari viloyat bosqichiga qa-
dar yetib keldi;

• Viloyatda g'oliblikni qo'lga kirit-
gan 11 nafar iqtidor egasi tanlovning
respublika bosqichiga yo'llanmani
qo'lga kiritishdi;
• G'oliblar orasida To'raqo'rg'on-
liklar eng ko'p – 6 nafarni tashkil et-
moqda;
• Eng yosh ishtirokchi – 11 yosh-
li Ravshan Toshxo'jayev estrada yo'na-
lishida o'z yosh toifasida tengsiz bo'ldi.

Husanboy POSHSHOXONOV, Namangan viloyati Yoshlar ishlari boshqarmasi matbuot kotibi

NUFUZLI SHAXMAT MUSOBAQASI BOSHLANDI MUKOFOT JAMG'ARMASI – 75 MING AQSH DOLLARI

Kuni kecha poytaxtimizdagi “Holiday inn”
mehmonxonasida shaxmat bo'yicha erkak-
lar va ayollar o'rtasidagi O'zbekiston chempionatining Oliy liga musobaqalari boshlandi.
Musobaqaning asosiy maqsadi O'zbekistonda shaxmatni ommalashtirish, sport va madaniy an'analarni saqlash, sportchilarning mahoratini oshirish, yosh toifalarida shaxsiy va jamoaviy O'zbekiston, Osiyo va jahon chempionatlarida ishtirok etuvchi sportchilarni aniqlash va saralab olishdan iborat.

Oliy liga bahslarining ochilish marosimida Sport vazirligi hamda O'zbekiston Shaxmat federatsiyasi mas'ullari, hakamlar hay'ati a'zolari, shaxmatchi yoshlar, OAV vakillari va keng jamoatchilik ishtirok etdi.

Dastavval O'zbekiston Shaxmat federatsiyasi raisining birinchi o'rinbosari Husan Turdaliev so'zga chiqib, musobaqa mukofot jamg'armasi 75 ming AQSH dollarini tashkil etishi va bu ko'rsatkich orqali musobaqa nafaqat O'zbekiston, balki Markaziy Osiyoda ham nufuzli yuqori ekanligini ta'kidladi.

– Musobaqa Prezidentimizning 2023–yil 8-maydagi “2026–yilda O'zbekistonda bo'lib o'tadigan 46–Jahon shaxmat olimpiadasiga kompleks tayyorgarlik ko'rish hamda


shaxmatni ommaviy harakatga aylantirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida tashkil etilmoqda, – deydi federatsiya mas'uli Shahnoza Ergasheva. – Musobaqada ishtirok etuvchilarning hujjatlarini qabul qilish va rasmiylashtirish federatsiya shakllantirgan mandat komissiyasi tomonidan amalga oshirildi.

Taqdim etilgan ma'lumotga ko'ra, musobaqa erkaklar o'rtasida 24 nafar va ayollar o'rtasida 18 nafar shaxmatchi ishtirokida 1-mayga qadar davom etishi rejalashtirilgan.

– Musobaqaga qatnashish uchun Farg'onadan keldim, – deydi 14 yoshli Asrorjon Omonov. – Bolaligidan shaxmatga qiziqaman. Bugungi kunga qadar o'tkazilgan viloyat va respublika musobaqalarida ko'plab sovrinli natijalarga erishganman. Nasib qilsa, Oliy ligada ham g'alaba qozonish niyatim bor.

“Rapid” yo'nalishida o'tkazilayotgan O'zbekiston chempionatining Oliy liga musobaqasida Javohir Sindorov, Jahongir Vohidov, Nodirbek Yoqubboyev, Shamsiddin Vohidov, ayollar o'rtasidagi bahslarda Afro'za Hamdamova, Umida Omonova, Nilufar Yoqubboyeva, Nodira Nodirjonovalar ham dona suradi.

Ilhomjon ABDUSALOMOV,
“Yoshlar ovozi” muxbiri



RESPUBLIKA KOMISSIYASI SAFARDA

» 2–bet

QASHQADARYO
VILOYATIDAGI
MAHALLALARDA
YOSHLAR BILAN
MULOQOTLAR OLIB
BORILDI



Yangi O'zbekistonda erishilgan eng katta muvaffaqiyatlardan biri xalq bilan muloqotning yo'lga qo'yilganidir. Xuddi shu andaza yoshlar bilan ishlash sohasiga ham tatbiq etilmoqda. Xususan, o'tgan yili mahallalarda yoshlar bilan ishlash masalalarini muvofiqlashtirish bo'yicha Respub-

lika komissiyasi mas'ullari mamlakatimizdagi barcha mahallalarda kamida ikki martadan bo'lib, yoshlar bilan muloqotlar olib bordi. Yuzma-yuz suhbatlarda yoshlarni qiynayotgan muammolar o'rganildi, aksariyati joyida hal etildi, ayrimlarning ye-

chimleri bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqildi. Buning natijasida, 2023–yil yakunlari bo'yicha, 3 286 ta mahallada birorta ham ishsiz yosh qolmadi, 2 831 ta mahallada yoshlar ishtirokida birorta ham jinoyat sodir etilmagan.

TOP 100 YETAKCHI:



NARGIZA G'AFFOROVA
QAYSI FAZILATLARI BILAN
AJRALIB TURADI?

» 3–bet

Nargiza G'AFFOROVA – 23 yoshda, Samarqand viloyati Jomboy tumani “Qang'li” mahallasi yoshlar yetakchisi. Bugungi kungacha tuman IIB matbuot kotibi, tuman hokimligi sektor kotibi yordamchisi, harbiy qism komandirining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha maslahatchisi – madaniyat markazi boshlig'i lavozimlarida ishlagan. “Yilning eng namunal yoshlar yetakchisi” tanlovi respublika bosqichida “Huquqbuzarliklar sodir etishga moyilligi bo'lgan va jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoshlar bilan tizimli ishlagan eng namunal mahalla yoshlar yetakchisi” yo'nalishi bo'yicha 3-o'rinni egallagan.

ERISHGAN YUTUQLARI:

“Fidoi yoshlar yetakchisi” ko'riktanlovining Samarqand viloyati bosqichida 3-o'rin;

“Yilning eng yaxshi yoshlar yetakchisi” tanlovining viloyat bosqichida 2-o'rin;
“Top-100” yoshlar yetakchilaridan biri.



ULAR
MEHNRATDAN
BAXT
YARATMOQDA

» 3–bet

“ISSIQXONA QURIB, KAM BO'LMADIM”

Yoshlar bandligini ta'minlash orqali ularni daromadli qilish, turmush farovonligini oshirish “Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili” davlat dasturining ustuvor yo'nalishi sifatida tanlab olingan. Natijada sohaning eng so'nggi yutuqlari, bilim va tavsiyalaridan yosh dehqonlar unumli foydalanib, yaxshigina hosil yetishtirmoqda. E'tiborlisi shuki, avvalari qishloq xo'jaligining katta qismida erkaklar faoliyat yuritgan bo'lsa, hozir dehqonchilik xotin-qizlar uchun ham begona bo'lmay qoldi.

To'rtko'l tumanidagi “Shodlik” mahallasi markazga yaqin hududda joylashgan. Albatta, bu yoshlar siyosati borasida yaratilayotgan imkoniyat va imtiyozlardan mahalla yoshlarini o'z vaqtida xabardor qilishga zamin yaratadi. Yoshlar yetakchisining bu borada shijoat va tashabbusi ko'plab yoshlar hayotini ijobiy tomonga o'zgartirdi. Ravshan Jonibekov yoshlar bilan hamjihatlikda ishlash, ularning muammolarini hal qilish borasida salmoqli natijalarga erishmoqda.



“IBRAT”DA MARAFON: YETTOVLON LONDONGA BORADI

» 4–bet

Yoshlar orasida til o'rganishga ishtiyok ham, ular uchun yaratilayotgan imkoniyatlar ham ortib bormoqda. Shunday imkoniyatlardan biri Yoshlar ishlari agentligining “Ibrat farzandlari” loyihasi hisoblanadi. Til o'rganishning bepul, oson, kreativ va qulay tomonlari shu ilovada jamlangan.

Loyiha 2022–yilda o'z faoliyatini boshlagan bo'lsa, bugungi kunga kelib yoshlar orasida keng ommalashdi. Bunday tashqari, yoshlarni fikrlashga undovchi “Ibrat Quiz”, “Ibrat Debate”, “Speaking Club” va bir qator marafonlar o'tkazib kelinmoqda.

Masalan, fevral oyida boshlangan ikki bosqichli ingliz tili marafonini til o'rganuvchi yoshlar katta qiziqish bilan kutib oldi. Birinchi bosqich 15 kun davomida “Ibrat Academy” ilovasi orqali bo'lib, sun'iy intellekt tomonidan baholangan. Bunda 100 nafar ishtirokchi saralab olinib, ikkinchi bosqichga o'tdi. Keyingi bosqich mock IELTS imtihoni ko'rinishida, oflayn tartibda bo'ldi. 7 nafar g'olibga Londonga 1 haftalik ta'lim sayohati, qolgan barcha ishtirokchilarga 1 million so'mdan pul mukofoti taqdim etilgan.

Londonga yo'llanma olgan yoshlar ko'pchilikka qiziq bo'lsa kerak. “Yoshlar ovozi” g'oliblar bilan bog'lanib, bir qancha savollarga javob topishga harakat qildi.

